



**KVALITOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF
O‘QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

Farmonova Shabon Muhamadovna
*Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: ushbu maqolada kvalitologik yondashuv asosida boshang‘ich sinf o‘quvchilarning tayanch kompetensiylarini rivojlanirish haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlanirish, milliy va umummadaniy, kommunikativ kompetensiyalarni shakllanirish asosida ijtimoiy kompetentlilikning mazkur komponentlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kvalitologik yondashuv, tayanch kompeteniya, kreativlik, kommunikativlik, mantiqiy fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlanirish, dunyoqarash, motivli vaziyat, amaliy tajriba.

**РАЗВИТИЕ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ
НА ОСНОВЕ КВАЛИФИКАЦИОННОГО ПОДХОДА**

Аннотация: В данной статье представлена информация о развитии базовых компетенций учащихся начальной школы на основе квалификационного подхода. Освещены эти компоненты социальной компетентности на основе саморазвития учащихся, формирования национальных и общекультурных, коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: квалификационный подход, базовая компетентность, креативность, коммуникативность, логическое мышление, саморазвитие, мировоззрение, мотивационная ситуация, практический опыт.

**DEVELOPMENT OF BASIC COMPETENCIES OF PRIMARY SCHOOL
STUDENTS BASED ON THE QUALIFICATION APPROACH**

Abstract: This article provides information on the development of basic competencies of primary school students based on a qualificational approach. These components of social competence are highlighted on the basis of students' self-development, the formation of national and general cultural, communicative competencies.

Keywords: qualification approach, basic competence, creativity, communication, logical thinking, self-development, worldview, motivational situation, practical experience.

Kirish. Bugungi kundagi taraqqiyot jamiyat va shaxsnинг umumiyligi madaniyatini rivojlantirishda yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bu ta’lim mazmuniga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq etishning ijtimoiy ahamiyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ta’lim shaxs va jamiyat ehtiyojlariga mos tarzda yangilanishi lozim. Ta’lim jarayonida yosh avlodning nazariy bilimlari va amaliy tajribasini rivojlantirish ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malakalari, dunyoqarashi, xulq-atvori shakllanib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida shaxs rivojlanadi. Shaxs o‘z navbatida jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydi. Ta’lim tizimi oldiga muayyan shaxsiy sifatlar va kompetensiyalarga ega bo‘lgan barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Bunday shaxs o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi, jamiyat a’zolari bilan samarali muloqot o‘rnata oladigan, umummadaniy faoliyat tajribasini egallagan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, faol fuqaro sifatida shakllanishi lozim.

Tahlil va natijalar. Kvalitologiya-bu inson tomonidan yaratilgan obyektlar va jarayonlarning sifati haqidagi fan. “Kvalitologiya” atamasi XX asrning 60 –yillari o‘rtalarida paydo bo‘lgan. “Sifat” obyekt sifatida, ko‘plab fanlar tomonidan o‘rganiladi, ammo ularning obyektlari individual xususiyatlar yoki xususiyatlar majmui. Kvalitologiyaning obyekti insonning bilish jarayonlari va hodisalarining sifati. Kvalitologiyaning predmeti-bu ta’lim amaliyoti tomonidan keng ma’noda assimilyatsiya qilingan obyektlar va jarayonlar o‘rtasidagi bog‘lanishdan iborat.

Didakt va metodistlar ta’lim jarayonining samaradorligi deb o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘yilgan maqsad va erishilgan natija o‘rtasidagi farqni izohlaydilar. Ta’lim jarayonida qo‘yilgan maqsad va erishilgan natija o‘rtasidagi tafovut qancha kam bo‘lsa, ta’lim shuncha samarador sanaladi. Samaradorlikning sifat ko‘rsatkichlari bilim va faoliyat usullarini egallahga ko‘ra aniqlanadi. Miqdor ko‘rsatgichlari esa ta’lim maqsadi va o‘quvchilar erishgan bilim, ko‘nikma, malakalar orasidagi farqqa ko‘ra aniqlanadi. Samaradorlikni oshirish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha sinovdan o‘tkaziladi: ta’lim sifati (o‘quvchilar bilimining ko‘lami, umumlashtirishlar darjasini, bilimlarni ishlab chiqarishga tatbiq eta olish, bilim va malakalardan zarurat tug‘ilganda foydalana bilish)ni yaxshilash; ta’lim natijasining qo‘yilgan maqsad (bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasini Davlat ta’lim standartlari darajasida va undan yuqori darajada o‘zlashtirish)ga yaqinlashtirish; ta’lim vositalarining ta’lim-tarbiya jarayoni mohiyatiga mosligini ta’minlash; vaqt byudjetini oqilona taqsimlash.

Yosh avlodda o‘zaro hamkorlikka kirishish, madaniy qadriyatlarni e’zozlash, tolerantlik sifatlari shakllanishi talab qilinmoqda. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar birinchi navbatda xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasini o‘zlashtiradilar. Shuning uchun ham mazkur jarayon o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular o‘zlashtirgan ijtimoiy tajribalarini istiqboldagi faoliyatlarida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Umuminsoniy qadriyatlarni negizida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijod qilish, ma’naviy-axloqiy xatti harakatlarni bajarish ko‘nikmasi shakllanadi. Falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlarda ta’lim jarayoni o‘quvchilarga xalqning

ijtimoiy tajribasini singdiruvchi jarayon sifatida baholangan. Ta’lim o‘zining xarakteriga ko‘ra aniq maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar tarbiyalanadilar, rivojlanadilar, hayot uchun zarur bilimlar va kompetensiyalarni egallaydilar. Mazkur bilimlar va kompetensiyalar o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashishlarini ta’minlaydi. Bizning tadqiqotimizda esa integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda hayot uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, bu jarayonda o‘quvchi shaxsiga samarali ta’sir ko‘rsatadigan omillar, metod va vositalarni qo‘llashga oid ilmiy yondashuvlar ishlab chiqiladi.

O‘quv-tarbiya jarayonida ijtimoiy kompetentlilikning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarkibiy qismlarini mazmun jihatdan boyitib tayanch kompetensiyalar tarkibida o‘quvchilarga taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tayanch kompetensiyalar yordamida o‘quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy kompetentlilik mazmun jihatidan muntazam takomillashadi. Tayanch kompetensiyalarni mazmun jihatidan boyitish asosida ijtimoiy kompetentlilikning tarkibi ham takomillashadi. Jamiyat hayotidagi ilmiy, texnologik, ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot tayanch kompetensiyalarning mazmun jihatidan boyishiga asos bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida mazkur kompetensiyalarni integratsiyalash natijasida hosil bo‘ladigan ijtimoiy kompetentlilikning ham mazmun jihatidan takomillashuviga asos yaratadi. Ijtimoiy kompetentlilikning asosini 2 ta katta guruhga mansub bo‘lgan kompetensiyalar tashkil etadi. Birinchi guruhga mansub kompetensiyalar shaxsnинг xulq-atvori va xatti-harakatlarini mujassamlashtiradi. Mazkur guruhga quyidagi elementlarni kiritish mumkin: kommunikativ ko‘nikmalar, guruhda ishslash layoqati, ziddiyatlar va muammolarni yecha olish layoqati. Ikkinchi guruh esa empatiya, rolli moslashuvchanlik, mas’uliyatlilik kabilarni o‘z ichiga oladi. Kommunikativ ko‘nikmalar shaxslararo munosabatlarga asos bo‘ladi. Muloqot o‘quvchilar hayotida alohida ahamiyat kasb etib, bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Muloqot jarayonida har ikki ishtirokchi ham faol mavqega ega bo‘ladi. Ularning birgalikdagi faoliyati mahsuli sifatida o‘zaro axborot almashish jarayoni kechadi. Kommunikativ jarayonning har bir sub’ekti o‘z muloqotdoshiga nisbatan faoliyik ko‘rsatadi. U o‘z suhbatdoshiga axborotlarni taqdim etar ekan, qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlarini hisobga oladi. Har bir shaxs uchun muloqot jarayonidagi axborotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu jarayonda suhbatdoshlar umumiy fikr doirasida mulohaza yuritadilar. Shu asnoda ular axborotlarni shunchaki qabul qilmaydilar, balki ushbu axborotlar ustida o‘ylaydilar, fikr yuritadilar. O‘zaro axborot almashinish muloqotdoshlarning xulq-atvoriga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Kommunikativ ko‘nikmalar doirasida shaxslarning muvaffaqiyatli munosabat o‘rnatishlari uchun zarur bo‘ladigan ko‘nikmalar nazarda tutiladi. Bunda asosiy e’tibor shaxslararo munosabatlar jarayonida nazokat bilan muomalada bo‘lish, o‘zini tutish, suxbatdoshiga hurmat ko‘rsatish nazarda tutiladi. Ushbu jarayonda nafaqat kommunikativ ko‘nikmalar, xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, balki kognitiv faoliyat ham amalga oshiriladi. Muloqot jarayonida shaxslararo munosabatlar doirasida birgalikdagi faoliyatga kirishiladi. Muloqot qoidalari o‘zida ijtimoiy axloq, faol tarzda musobaqlashish, o‘z-o‘zini namoyon

etish qoidalariga amal qilishni qamrab oladi. Ijtimoiy kompetentlilikning tarkibiy qismi sifatida kommunikativ ko‘nikmalar boshqalarni tushunish va uni tushunishlariga imkoniyat yaratishdan iborat shaxsiy layoqat sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar muloqotning turli usullarini o‘zlashtirishlari va vaziyat bilan bog‘liq holda uni qo‘llashlari uchun ta’lim jarayonida qulay sharoit yaratilishi kerak. Shu asosda o‘quvchilarni shaxslararo munosabatga tayyorlash amalga oshiriladi. Ijtimoiy kompetentlilikning shaxs faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarkibiy qismlari o‘zaro muvofiq keladigan vaziyatlarni tanlash, xulq-atvor ko‘rinishlarini o‘zlashtirish, kommunikativ hamda integrativ ko‘nikmalarni mujassamlashtiradi. Ijtimoiy kompetentlilikning o‘quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qimlaridan biri guruhli faoliyat tajribasiga ega bo‘lishdir. O‘quv jarayonida o‘quvchilarni guruhda faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minalash bilan bir qatorda o‘quvchilarni hamkorlikda ishlashga o‘rgatishga ham xizmat qiladi. Buning uchun o‘quvchilar oldiga tabaqalashtirilgan aniq maqsadlar qo‘yish talab etiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, jarayonning o‘zi kabi uning natijasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarni faol tarzda shaxslararo munosabatga kirishishlarini ta’minalaydi. Ularning o‘z-o‘zlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma’lumki, o‘zaro bиргалидаги faoliyat har doim muayyan maqsadga erishishni nazarda tutadi. Birgalikdagi faoliyat o‘quvchilarning amalga oshirilayotgan faoliyatga bo‘lgan munosabatlarini oydinlashtiradi. Bu esa erishilgan yakuniy natijaga tuzatishlar kiritishni nazarda tutadi.

Amaliy faoliyat muayyan o‘quv jarayoni yoki layoqatning mahsuli hisoblanadi. Ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalashda o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilanishi lozim. Integrativ yondashuv asosida ta’lim mazmunini tanlashda o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish o‘quv materiallarining mantiqiy asosini tashkil etishi kerak. Vaziyatli topshiriqlar o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalarni egallahsga yo‘naltiradi. Har bir topshiriq o‘quvchilarda muayyan ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi nazarda tutiladi. Shu maqsadda vaziyatli topshiriqlar majmuini belgilash talab qilinadi. Motivli vaziyatli topshiriqlar o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni egallah mayllarini hosil qiladi. Topshiriqlarni yechish jarayonida o‘quvchilarda muayyan kompetensiyalarni egallahsga nisbatan moyillik vujudga keladi. Mantiqiy fikrlashga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarga o‘zaro dialogga kirishish, individual faoliyat uslubiga ega bo‘lish, bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa. O‘quvchilar muayyan vaziyatlarda o‘zlarida shakllangan kompetensiyalarni tahlil qila olish tajribasiga ega bo‘lishlari lozim. O‘zlarida shakllangan kompetensiyalarga tuzatishlar kiritish, o‘z Gnostik xarakterdagi evristik topshiriqlar o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirib, ularda muayyan vaziyatlardan chiqish, mantiqiy fikrlash, muammolarga tezkor yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ijodiy faollikkka undaydi.

Mazkur jarayonda o‘quvchilarda umummadaniy va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari jadal shakllanadi. Vaziyatlarni tahlil qilish o‘quvchilarni o‘z faoliyatlaridagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga undaydi. Tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lish ularda muayyan tajribalarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarga istiqbolda muayyan vaziyatlarda aniq harakat qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Краевский В.В., Хуторской А.В. Основы обучения: дидактика и методика // Учебное пособие для студентов ВУЗ. –М.: Издательский центр “Академия”, 2007. –246 с.
2. Қуронов М. Ўзбекистон умумий урта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед. фан. д-ри ... дис. – Т., 1998. – 316 б.;
3. Инамов Д.Д., Ходжабаев А.Р. Квалиметрический подход как средство отценки качества подготовки будущих педагогов профессионального образования // Журнал “Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития”. Материалы 12-й международной конференции. Выпуск 12. Часть II. –Санкт-Петербург: 2014. – С.93-95.
4. Ишмухаммедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш ўйлари // Қўлланма. –Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2006. – 36 б.
5. Muslimov N.A. Theoretisal and methodologisal bases of rrofessional formation of the teasher of vosational yedusation. Diss.... red. ssiense. dr //T.: 2007.-315 r. – 2007.
6. Muslimov N.A. Rrofessional formation of future vosational yedusation teashers. Monogrарh //Ssiense. – 2004. – Т. 4.